



XIX ASR INGLIZ ADABIYOTIDA TANQIDIY G'OYALARNI SHAKLLANISH OMILLARI

Musaffarov Javlon Kodirjonovich

Namangan davlat chet tillar insitetuti
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8434163>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil
Ma'qullandi: 06- October 2023 yil
Nashr qilindi: 12- October 2023 yil

KEY WORDS

tanqidiy realizm, monologiya, romantizm, realistik san'at, psixologik tahlil, realistik metod.

ABSTRACT

XIX asr ingliz adabiyotida tanqidiy g'oyalarni 60-yillar boshiga kelib romantizmning AQSh adabiyotidagi yarim asrlik hukmronligi tugadi. Hali to'la takomillashmagan kapitalistik munosabatlar davrida amerika hayotini o'zicha haqqoniy va chuqur tasvirlashga imkon bergan romantizm ijodiy metodi kapitalistik tuzum qarama-qarshiliklari keskin avj olgan sharoitda talabga javob bermay qoldi.

Amerika mehnatkashlar ommasining monopoliyalarga qarshi mardonavor kurashi, ishchilarning ulkan qo'zg'olonlari va ish tashlashlari, amerika millati ichida ikki millat - Uitmanning, Mark Tven, Yujin Debbsning millati va Rokfellerlar, Morgan va Karnegilar millatining tashkil topishi - bu kabi voqealar barchasi yaxshilik va yomonlik kurashining romantik sxemasiga sig'madi, ularni romantik allegoriyalarda ruhida endi tasvirlab bo'lmadi.

Romantizmning tarixiy cheklanganligini bartaraf etish uchun bir badiiy usulni boshqasi bilan almashtirish kifoya qilmadi. San'at hayotni va uning qonuniyatlarini o'rganish vositasi, degan qarashga asoslangan yangi estetikani yaratish talab etilardi. Hayot va inson, uning ijtimoiy psixologiyasi haqida teran bilimga tayanadigan yangi metodni ishlab chiqish lozim edi. Badiiy tipiklashtirishning yangi usuli kashf etildi. Uning ahamiyatini quyidagicha qayd etmoq lozim: "Realizm, detallarning haqqoniyligidan tashqari tipik xarakterlarni tipik sharoitlarda to'g'ri ko'rsatishni nazarda tutadi... tipik sharoitlar ularni o'rab oladi va harakatga kelishga majbur qiladi".

Romantiklarda ham biz haqqoniy detallarni uchratamiz. Ayrim holatlarda ular voqelikning muhim tomonlarini aks ettirgan tipik obrazlar yaratishni uddalashgan (Gotorn asaridagi puritan obrazlari, Melvillning "o'ta so'l" Allano obrazi). Biroq, realizmning kuchi shundaki, u mazkur xarakterlarni tipik sharoitlarda tasvirlaydi, bu esa o'zvaqtida romantizm uchun imkonsiz edi.

Romantiklar shaxsningshakllanishida atrof-muhitningta'sirini inkor etishdi, ular o'z qahramonlarini aniq tarixiy va turmush sharoitidan ajralgan holda aks ettirishdi. Realistlar esa, shaxsni bundaysharoitdan ajratib olmaydi. Ular inson va jamiyat hayotida moddiy shart-sharoitning yetkachi rolini tushunishdan kelib chiqadi.

Oddiy insonning burjuaziya jamiyatidagi fojeali taqdirini tasvirlab, buning sabablarini ular ijtimoiy tuzumdan emas, balki insonning o'zidan qidiradi. Bu esa ularning buyuk kashfiyoti.

Ular uchun zamonaviy bo'lgan hayotning ob'ektiv shart-sharoitlarini, buhayotning teran tahliliga asoslanib, hushyor turib tushunganda, realizmning tarixiy ustunligi shunda ko'rinadiki, romantiklar qalamga olgan ko'plab problemalarni chuqur talqin qilishda bu ularga yordam beradi.

Agar romantiklar sevgi- muhabbatni shaxs ma'naviy fazilatining yuksak ko'rinishi sifatida, hayot nopokliklari va pastkashliklaridan jon saqlaydigan kulba sifatida talqinlashgan bo'lsa, XIX asr realistlari sevgi- muhabbat pul munosabatlari ta'sirida tahqirlanayotganini ko'rsatdilar. Sevgi- muhabbat mavzusi realistlar ijodida burjuaziya jamiyatini, uning surbetligini va axloqsizligini ko'satish vositasiga aylandi. Romantiklar talqinida san'atkor talqini ham xuddi shunday - san'atkor erkin ijodkor, u jamiyatga faqat va faqat real hayot bilan bog'lanmagan, ijodiy fantaziyasi yordamida ta'sir ko'rsatishi mumkin (Po, Gotorn). Jamiyat hayotida san'atning rolini inkor etmagan realistlar ayni paytda pulmunosabatlarining san'atga halokatli ta'sirini, uni tanazzulga olib kelishini qayd etganlar. Ular manfaatparast, tamagir jamiyatda iste'dod halokatining fojeasi mavzusini ko'tarib chiqdilar (U.D.Xouels, G.Fuller, J.London, T.Drayzer va boshqalar).

Realizm erishgan eng muhim yutuqlardan biri psixologik tahlilning teranligidir. Bizga ma'lumki, bir paytlar sentimentalchilar "yurak hayoti"ga e'tiborlarini qaratgan edi, romantiklar esa insonning ichki dunyosiga jiddiy qiziqishlarini namoyon etishdi. Garchi romantiklar o'z qahramonlarini kuchli ehtiros sohiblari sifatida gavdalantirgan bo'lsalar-da, ular insonning ichki dunyosini tahlil qilish va uning ehtiroslarini tushuntirishdan voz kechishdi, inson qalbi - aql-idrok bilan yetib bo'lmaydigan tubsizlik, deb hisoblashdi. Realistlar esa, inson qalbi sir-sinoatlari pardasini yechdilar. Ular yurak qa'rida sir tutilgan sinoatlargacha dadil kirib bordilar va bu yerda aniq tahlilni qo'lladilar. Boz ustiga realistlar asarlarida insoniyehirotlar o'zining ijtimoiy talqinini, sharhini topdi.

Realistik metod erishgan yana bir muhim yutuq-bu xarakterni harakatda, rivojlanish jarayonida ko'rsata bilishdir. Romantiklarda, odatda, xarakterlar oldindan tayyor, ma'lum bo'lardi. To'g'ri realistlarda ham xarakter shakllangan tarzda asarga kirib kelishi mumkin. Biroq, muhimi shundaki, realistik asarda bunday xarakter doimoburungi rivojlanish hosilasi sifatida qabul qilinadi. Realist, V.G.Belinskiy fikricha, o'z qahramonini ayni daqiqada aks ettiradiki, biz uning hayoti haqida gapirganda "ayni daqiqagacha va undankeyingi daqiqa" ni nazarda tutgan bo'lamiz.

Xullas, realistik san'atning eng katta yutug'i tarixiylik prinsipi hisoblanadi. Yozuvchi- realistlar davr ruhini berishda o'ta aniqlikda ish yuritadilar, o'z personajlarini shunday xarakterlashadiki, ularni tasvirlanayotgan davrdan boshqa biror-birdavrga taalluqli, deb bo'lmaydi.

Realistik metodning ayrim o'ziga xos xususiyatlari shundayki, ular XIX asr ikkinchi yarmi amerika hayotini teran va har tomonlama tasvirlashni uddalashga bu metod uchun imkon tug'dirdi. Biroq, romantizmning bo'sh tomonlaridan ustun kelib, tanqidiy realizm AQShda uning vorisi sifatida maydonga chiqdi, Kuperning, Gotornning, Melvillning yaxshi an'analari-demokratizmi, gumanizmi, grajdan sifatidagifidoyiliklarini davom ettirdi.

AQShda tanqidiy realizm faqatromantizmdan o'sib chiqmadi. Uningshakllanishida xalq og'zaki ijodi (negr folklori, frontir folklori - kovboy (otliq podachi, cho'pon) qo'shiqlari, rivoyatlar, og'zaki hikoyalar) kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Agar "boston maktabi", adabiyotni hayotdan uzib, yozuvchini taqlidchilikka, ijodiy

samarasizlikka duchor etgan bo'lsa, AQShda realizmning rivoj topishida folklor qudratli davolovchi omil bo'ldi. Amerika folklori yozuvchilarni nafaqat hayotga yaqinlashtirdi, balki amerika realizmining betakror, milliy o'zigaxosligini belgilab berdi.

Amerika folklorining turli xil ko'rinishlari orasidan frontir afsonalari va og'zaki hikoyalarni ajratib ko'rsatish joiz. XIX asrning birinchi yarmida daraxt kesuvchilar, fermerlar va ovchilar orasida fortir qahramonlari haqida afsonalar to'qildi. G'arbning bepoyon kengliklarini o'zlashtirish sabr-bardoshni, chidam va qat'iyatni, jur'at va jasorat ko'rsatishni talab etdi. Mehnatkash amerika xalqi namoyon etgan bubarcha fazilatlarini xalq o'zining ertak qahramonlari erishgan g'alabalarga singdirib yubordi.

AQShda o'rmon kesuvchilar orasida tug'ilgan Pol Benyan haqidagi rivoyatlar juda mashhur bo'ldi. Bu buyuk o'rmon kesuvchi mard amerika xalqining matonati va fidoyiligi, jasorati va ijodiy kuch- qudrati timsoli sifatida gavdalanadi. U tabiatning yovvoyi kuchini bo'ysundiradi va uni insonga xizmat qilishga majbur etadi: tog'larni o'rnidan siljitadi, daryo o'zanlarini rostlaydi, yangi daryolar, ko'llar barpo etadi. Pol Benyan xalq manfaatlarini yo'lidagi kurashchi, adolatli hayot bunyodkori sifatida maydonga chiqadi.

Amerika realizmining shakllanishida, ayniqsa, og'zaki hikoyaning ta'siri kuchli bo'lgan. Fermerlar, daraxt kesuvchilar, ovchilar, elkezar savdogarlar orasida tug'ilgan bunday hikoyalar xalq yumorining ilk hosilasi edi. Qaergaki bir guruh amerikalik yig'ilmasin - oddiy restorangami, kema palubasiga yoki kechuv joyigami - albatta, suhbatdoshlarini biror-bir kulgili voqea bilan kuldiradigan hikoyachi topilardi.

Sharqiy shtatlarda bunday voqealar qahramoni Yanki - tajribakor, uddaburon, qo'li gul, anoyilarni ipsiz bog'lab ketadigan amerikalik maydonga chiqdi.

AQSh Janubi va G'arbida, ya'ni fortirda yumor yanada qizg'in rivojlandi. Bu joylarda kulgili voqealar qahramoni sifatida fortirchi (ovchi, skvatter yoki qayiqchi) gavdalanadi. G'arb yumorining o'ziga xosligi to'laligicha fortir hayotsharoiti bilan belgilanadi. G'arbning bepoyon kengliklarini, ulkan daryolarni, yovvoyi cho'llarni, mudroq o'rmonlarni, yo'lsizliklarni - bunday joylarni o'zlashtirish uchun to'zim va jasorat talab etilardi. Tabiat bilan shafqatsiz jangda fronterchiga kulgi yordam berardi.

Frontir yumorining xarakterli xususiyatlari - hajviy bo'rttirishlarga moyillik, grotesk uslubidagi boy mubolag'ali obrazlarning maqtanchoqlik,

chiranishlar bilan qo'shib aytilishi, xavf-xatarlarga ochiq, yuzma-yuz kelish va kundalik turmush yo'qchiliklari ustidan kulishdan iborat. O'zining shaxsiy g'alabalarini aytish bilan birga to'siqlarni yengib o'tgani bilan u o'zining hurmat-obro'sini oshiradi va bundan kuch olib, o'ziga ishonchi ortadi.

Biroq xavf-xatarga to'la shafqatsiz hayot, o'limga tik qarash odati frontir yumorining ikkinchi muhim jihati - "shafqatsizlik" fojeaviylik bilan kulgini birga uyg'unlashuvini belgilagan. Amerikalik bir tadqiqotchining qayd etishicha, G'arbda "ko'plab hikoyalar va voqealar doimo qo'rquv va kulgi chegarasida turadi va bu groteskni paydo qiladi". Bu groteskda ijtimoiyvoqelikning fojeasi va xalq orzu- umidlari aks etgan.

Frontir xalq yumorining eng keng tarqalgan janri ertaknamo uydirma- cho'pchaklar (tall-tales) hisoblanadi. Ularda qahramon o'zini "yarim ot-yarim timsoh" deb ataydi va g'ayritabiiy jasoratlar haqida hikoya qiladi. Jumladan, bunday ertaknamo uydirma-cho'pchakning mashhur qahramoni Devi Krokett Missisipi daryosini bir ho'plashda simirib quritishi, bir kunda olti bog'lam teri olinadigan ayiqlarni otib o'ldirishi va hokazolarni aytib

maqтанadi.

Asta-sekin bu kabi og'zaki lof, hikoyalar, qo'l uchida badiiy ishlov berilib, gazetalar sahifalariga tushadi. So'ngra esa, xalq og'zaki ijodidan ilhomlanadigan yozuvchilar paydo bo'ladi. Ular nafaqat o'zlarining asarlari uchun mavzular va obrazlarni, shuningdek, badiiy usullarni ham xalq yumoridan, fermerlar, ovchilar va daraxt kesuvchilarning og'zaki hikoyalaridan oladilar. XIX asr Amerika adabiyotining buyuk realisti Mark Tven aynan mana shu manbaga tayangan.

O'zining eng yaxshi jihatlarini - realistik talqinni, xalqchillikni, ijtimoiy norozilik ruhini folklordan olgan amerika yumori shu tariqa yuzaga keladi. Aynan ijtimoiy tanqidiy nazar, siyosatdonlar, vijdonsiz advokatlar,

munofiq ruhoniylar va boshqa tekinox'rlar ustidan kulish, og'zaki hikoyalardan ilhomlangan, amerika yumorining eng asosiy xususiyatini belgilaydi.

Seba Smit, Tomas Xaliberton (Yangi Angliya), Ogestos Longstrit, Jonson Xuper, Tomas Torp, Jorj Garris (Janubi-G'arb) bu yumorning yirik ustalari sifatida maydonga chiqdi. Ular o'zlarining hikoyalari bilan 30-yillarda ko'rindilar va amerika adabiyotining ilk realistlari sifatida tanildilar. To'g'ri, ularning realizmi yaxlit olganda sodda, yengil-yelpi bo'lib, ayrim hollarda hayratlanarli darajada terankuzatishlarga va ta'rif-tavsiflarga ega edi.

Amerika yumori boshlab bergan ishni 60-yillarda viloyat adabiyoti (boshqacha atamasi - "mahalliy o'ziga xoslik maktabi") deb atalgan adabiyot davom ettirdi. Longstrit, Xuper va Garris 30-50-yillardayoq o'zlarining jamoalari turmushi va axloq-odobini, o'z shtatlari shevasini ko'rsatishga intildilar. Viloyatlik yozuvchilar AQShning alohida hududlari hayotining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishni kengaytirdilar va chuqurlashtirdilar. Ular qalamidan "surat" va "sahnalar" bilan birga butun bir povest va hikoyalar yuzaga keldi. O'z shtatlari shevalarini chin dildan o'rganib, o'z hududlari axloq-odobi va urf-odatlarini manzaralarini qayta yaratib, bayramlar va mehnat jarayonlarini tasvirlab, viloyatlik yozuvchilar tanqidiy realizmning asl boshlab beruvchilariga aylandilar, tanqidiy realizmga yo'l ochdilar.

Ularning ijodiy metodidagi asosiy kamchilik tipiklashtirishning sayozligi, shuningdek, muammolarning yetarli darajada chuqur ochilmaganida edi. Turmush ikir-chikirlari tasviri va nutqni ma'lum bir uslubga solish ular uchun asosiy maqsad edi. Aynan tipiklashtirish prinsiplarini puxta egallagani va yirik ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqqani tanqidiy realizmning viloyat adabiyotidan ustunligini ko'rsatadi.

Adabiy oqim sifatida, tanqidiy realizm rivojida ijobiy rol o'ynagani tufayli viloyat adabiyoti faqat 60- yillarda muayyan ahamiyatga ega bo'ldi. Uning yetakchi namoyandalari - Sharqda Sara Juett, G'arbda Ross Braun, Janubda esa Jorj Keybl edi.

60-yillar oxiri - 70-yillar boshiga kelib AQShda tanqidiy realizm o'zining yetuklik bosqichiga kiradi. Bu yillarda Amerika o'z mamlakati realistik san'atini Yevropa tanqidiy realizmi darajasiga ko'targan Uolt Uitmen boshchiligidagi yozuvchilar avlodi maydonga chiqadi. Garchi Uitmen Fuqarolar urushigacha ham ijod qilgan bo'lsa-da, uning urushdan keyingi tanqidiy va siyosiy faoliyati AQShda tanqidiy realizm rivojida juda katta rol o'ynadi. Uitmenning dasturini, yangi amerika adabiyotini yaratishga qaratilgan otashin da'vatlarini

Amerikafojealarini dadil fosh etishlarini, nafs balosiga yo'liqqanlar hokimiyatini keskin tanqid qilishlarini Mark Tven, De Forest, Rebekka Xarding-Devis, Xoakin Miller va boshqa amerika realistik nasrining vakillari o'zlashtirib oldilar.

Adabiyotlar:

1. V.G.Belinskiy. To'la asarlar to'plami, III jild,- M.: 1953, 454- bet.
2. Constance Rourke. American Humour. N. Y., 1931, 49-bet



INNOVATIVE
ACADEMY